

**“ YANGI O’ZBEKISTON JAMIYATIDA AYOL RAHBARLAR FAOLIYATIGA NAZAR ”**

**Dilnoza Abduraximova Roxatilla qizi**

*O’zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti Harbiy  
Jurnalistika yo’nalishi 3-bosqich talabasi*

**Anotatsiya :** *Ushbu maqolada liderlik ko’nikmalari , rahbarlik faoliyatida ayollarning o’rni, ayol rahbarlarning o’ziga xos xususiyati , liderlik uslublari haqida to’xtalib o’tilgan .*

**Kalit so’zlar :** *liderlik, kongress, uslub,yondashuv, qobiliyat,*

**Анотация :** В данной статье рассматриваются лидерские качества, роль женщин в лидерской деятельности, специфика женщин-руководителей, стили лидерства.

**Ключевые слова :** *лидерство, конгресс, стиль, подход, способность*

**Anotation :** *This article discusses leadership skills, the role of women in leadership activities, the specifics of female leaders, leadership styles.*

**Key words:** *leadership, congress, style, approach , ability.*

Lider deganda, odatda, ko’z oldimizda erkak kishining timsoli jonlanadi. Ammo dunyo siyosati va biznes maydonida nom qozongan ayollar soni oz emas. O’zbekistonda ham ayol hokimlar soni 6 kishiga yetishi bilan lider ayollar mavzusi qizg’in muhokama obyektiga aylandi. Xo’sh, ayol rahbarlarning o’ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Quyida shu haqda to’xtalamiz.

O’z egoizmini boshqarish orqali ko’proq savollar berib, ilhom olish istagidagi qiziquvchan ayol rahbarlar mukammallikni izlayotgan ishtiyoqli izdoshlar sifatida namoyon bo’ladilar. Tabiatan mehribon ayol rahbarlar – yaxshi tinglovchilardir. Yaxshi tinglovchi bo’la olish esa muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Har doim haq va so’nggi so’zni aytishga majbur bo’lmagan ayollar ekotizimlar yaratish va fikrlarni umumlashtirish orqali hamkorlikda harakat qilishdan mamniniyat tuyadilar. Erkak va ayollar: Liderlik uslublarida qanday farqlar bor? Yetakchilik aloqa qobiliyatları bilan chambarchas bog’liq, shu bois erkaklar va ayollarning uslubi bir-biridan farq qiladi. Ushbu tafovutlar gender xususiyatlaridan kelib chiqadi. Jarayonmi yoki strategiya? Ayollar yetakchilik uslubida erkaklarga qaraganda ko’proq jarayon va natijaga e’tibor qaratadilar: ishni tashkil qilish, jarayonlarni baholash, yuqori mahorat mezonlarini belgilash, ishdan ko’zlangan maqsadga erishib-erishilmaganini doimiy nazaorat qilish, vaqtga e’tibor berish va natijaga qarab ishlash ularga xosdir. O’z navbatida, erkaklar “strategik fikrlash” tushunchasiga ko’proq e’tibor qaratishadi. Strategik rejallashtirish va dunyoqarash haqida qayg’urish, yangi g’oyalar uchun ochiq bo’lish, xavfni oson qabul qilish, intellektual boylik, o’tmishdan saboq chiqarish, kelajakdagи imkoniyatlarni oson ko’ra olish ularga xos xususiyatdir. Xulosa Albatta, erkak va ayol liderlarning xususiyatlari bir-biridan farq qiladi. Ustunlik masalasida tarozining goh u pallasi, goh bu pallasi bosib ketadi. Ammo nima bo’lganda ham, ayol

liderlar dunyoni o'zgartira oladi: rahbar sifatida, ona sifatida, ayol sifatida. Zotan, mutafakkirlardan biri aytganiday, yer yuzidagi jamiki narsa ayol yaratgan asarlardir!

Fan nazarda tutishi lozim bo'lgan holatlardan biri shundan iboratki, xotin-qizlar qay sohada faoliyat ko'rsatmasin, asl tabiatidan kelib chiqqan xolda kimlardandir juda keskin farq qilishni istamaydi, shu bilan birga, o'ziga xoslikni ham saqlashga urinadi. Ularning ana shu o'ziga xos psixologiyasi rahbarlikda erkaklar bilan ayollarning muayyan farqlari bo'lishini taqozo etadi.

An'yanaviy yondashuvga ko'ra, rahbarlik yoki liderlik masalasi erkaklar amalga oshiradigan mas'uliyat sifatida qaraladi. Lekin eramizdan avvalgi IV asrda yashagan faylasufning shunday gapi bor: «Biz ayollarga pullarimizni, uy-ro'zg'orimizni, farzandlarimizni ishonib topshiramiz. Nima uchun ularga davlat boshqaruvini ishonmasligimiz kerak?». Bu gapning tagida ma'moно bor: ayollar oiladan tashqari yumushlarni bajarishda ham o'zlaridagi qator ijobjiy sifatlarini namoyon etadilarki, aynan shu narsa ayniqsa, XX asrning oxiri va yangi asr boshiga kelib ko'plab ilmiy izlanishlarning predmetiga aylandi.

O'tkazilgan qator tadqiqotlarda gender tafovutlarining liderlikni samarali tashkil etishdagi o'ziga xosligi nima ekanligiga e'tibor qaratildi va bunda asosan ayollar va ularning shaxsiy sifatlari diqqat markazida bo'ldi.

Ayollarning rahbarlik mavqelari tahlil qilinganda. ba'zi murakkabliklar kelib chiqadiki, buni o'sha ayolning rahbarlik faoliyatini olib borishi uchun o'zini qay darajada erkin tutishi bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni, rahbarlik lavozimlaridagi ko'pgina ayollar o'zlarini tutishlari, ish yuritishlari, hattoki, odamlarga munosabatlarda erkaklarga o'xshab ketadilar. Umuman olganda, erkaklar va ayollar o'rtaida o'xshashliklar ham, tafovutlar ham mavjud, lekin tafovutlar hammaning diqqatini ko'proq tortadi. Har bir alohida olingan erkak yoki ayolning shaxs sifatidagi individual farqlaridagi tafovut gender rollaridagi tafovutlardan ortiqroq bo'lsa-da, eng muhim sifatlar nuqtai nazaridan, ya'ni, tobelik va emotSIONAL bog'liqlik sifatlarida tub farqlar bo'lgani uchun ham ijtimoiy-psixologik farqlar kattaday tuyuladi.

Xususan, O'zbekistonda o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlarda o'rta bo'g'in rahbar ayollari faoliyatining o'ziga xos jihatlari borligi isbotlandi. Bunday o'ziga xosliklar quyidagilarda ifodalanadi:

- ☒ ayol rahbar o'z ish faoliyatida bevosita rahbarlardan tashqari, o'z xodimlarining fikrlarini ham inobatga olib ishlaydi;
- ☒ ayol rahbar, eng avvalo, o'zi boshqarayotgan jamoadagi insonlar o'rtaida shaxslararo munosabatlarga ko'proq e'tibor beradi;
- ☒ ayol rahbar biror masalani hal qilishda 2-3 kishi bilan maslahatlashib, so'ng qaror qabul qiladi;
- ☒ ayol rahbar ishxona manfaatlari bilan oilaviy manfaatlarni deyarli bir darajada ahamiyatli deb qaraydi;

- uning xodimlarga beradigan ko'rsatmalari ko'proq konstruktiv bo'lib, tashabbus ko'rsatuvchi xodimlar bilan kelishuvlar asosida ishlaydi;
- ayol rahbar xodimlarining shaxsiy hayotlari hamda oilaviy sharoitlari bilan ham qiziqib turadi va hokazo.1

Maxsus tadqiqotlar orqali ayrim yuqori lavozimlarda ishlaydigan ayollarga xos xususiyatlar, sifatlar ham o'rganilgan. To'gri, siyosat bilan shug'ullanuvchi ayollar soni erkaklarga nisbatan ancha kam bo'lsa-da, davlat rahbarligi, Oliy palatalar, kongreslarda faoliyat ko'rsatayotganlar ayollar shaxsiy sifatlari shkalasida sof ayollik xususiyatlaridan tashqari, tavakkalchilik, shijoat, matonat, sabr-bardosh, faollik, intiluvchanlik, yuqori madaniyat, analistik fikrlash qobiliyati kabi erkaklarga xos qator sifatlarni o'zida mujassam etgan ayollarning siyosiy-ijtimoiy va tarixiy rollari muxim ekanligi isbotlandi. Ya'ni, ayol kishi rahbarlik lavozimi pillapoyalaridan yuqoriga ko'tarilgani sari, o'zida erkaklarga o'xhash sifatlarni ko'prok, namoyon etishga moyil bo'ladi, oila manfaatlarini ham sekin-asta jamiyatnikidan keyingi o'ringa qo'yadigan bo'lib boradi.

Masalaning muhim jihat shundaki, aynan yuqori lavozimdagi ayollarning noan'anaviy sifatlari xarizmatik yoki rahbarlik pillapoyalaridan ko'tarilgan sari orttiriladigan sifatlar ekanligini empirik materiallar asosida o'rganish lozim. Vaholanki, jamiyatning teng yarmini tashkil etadigan xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi o'rni va salohiyatidan oqilona hamda o'rinci, oila manfaatiga ziyon yetkazmagan holda foydalanish psixologik jihatdan o'zini oqlaydigan omildir.

Xullas, bugungi kunda O'zbekiston ayollarining ko'pchiligi davlat va jamiyatning eng muhim sohalarida xizmat ko'rsatmoqda. Mamlakat bo'yicha ijtimoiy va xizmat ko'rsatish sohasi, kasanachilikning katta qismini ayollar band etganligi, ularning mamlakat Parlamentidagi o'rni va ahamiyati ortib borayotganligi, ko'plab tadbirkor, mulkdor xotin-qizlarning yetishib chiqayotganligi va fuqarolik jamiyatining eng asosiy shartlaridan bo'lgan xususiy mulk instituti shakllanishida ularning roli nihoyatda yuqori bo'layotganligi holatlarining guvohimiz. Zamonaviy ayol qiyofasini yaratish va uni ro'yobga chiqarish ulug' maqsadlarimizdan. Zero, kelajagi buyuk davlatning oldiga ko'yan maqsadlari ham ulug' bo'ladi..

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. O'zbekistonda zamonaviy boshqaruv siyosati va uning mohiyati"
2. A.S. Axmedova . Boshqaruvda xotin-qizlarning ishtiroki.
3. A.R. Izmerovna . Мир исследований
4. G'oziyev . E.G. Muomila pixologiyasi .
5. <https://journal.jspi.uz>
6. <https://cyberlenunka.ru>
7. <https://yuz.uz>